

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**XOLXUJAYEVA YULDUZ URALBOYEVNA**

**TURKISTON AHOLISI VA MILLIY TARKIBI: TARIXIY TAHLIL  
(1867-1917 YILLAR)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Xolxujayeva Yulduz Uralboyevna**

Turkiston aholisi va milliy tarkibi: tarixiy tahlil (1867-1917 yillar)..... 3

**Холхужаева Юлдуз Уралбоевна**

Население Туркестана и национальный состав: исторический анализ  
(1867–1917 гг.)..... 25

**Kholkhujayeva Yulduz Uralbaevna**

Population and national composition of Turkestan: historical analysis  
(1867–1917)..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 55

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**XOLXUJAYEVA YULDUZ URALBOYEVNA**

**TURKISTON AHOLISI VA MILLIY TARKIBI: TARIXIY TAHLIL  
(1867-1917 YILLAR)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida Byulletenida V2019.4.PhD/Tar581 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Normurodova Go'zal Bekmurodovna  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** G'afforov Shokir Safarovich  
tarix fanlari doktori, professor

Davlatova Saodat Tilovberdiyevna  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalarni beruvchi DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «28» 08 kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; Faks: (99866) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (67 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy). Tel.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; faks: (99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «08» 08 kuni tarqatildi.  
(2024-yil «    »      dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).



**B.E.Ergashev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d, professor

**F.A.Narmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa doktori (PhD)

**I.M.Saidov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, t.f.d, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon mamlakatlari hududlarida hozirgi globallashuv davrida yashayotgan turli millat vakillarining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy munosabatlarining tarixiy tajribasiga barqarorlik va rivojlanish omili sifatida qarab kelinmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, O‘rta Osiyo mintaqasi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida jiddiy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Shular jumlasidan, mustamlaka Turkiston xalqlari va o‘lkada ko‘pmillatlikning shakllanish masalalarini tarixiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu tarix fanida nafaqat mintaqa, balki mintaqalararo dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Dunyoning bir qator ilm-fan markazlarida Rossiya imperiyasining mustamlaka milliy hududlarida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mustamlaka siyosati tarixi keng tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlariga oid milliy siyosat, ruslashtirish, demografik jarayonlar tarixi bo‘yicha fundamental ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. O‘rganilayotgan davrda Turkiston o‘lkasida istiqomat qilgan turli milliy guruhlar, ularning konfessial manzarasi va demografik muammolarini qiyoslab tahlil qilish tadqiqotning fandagi zaruratini belgilab beradi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarix fani rivoji yo‘lida tadqiqotlar ko‘lami kengayib, sifat jihatidan yangi izlanishlar bilan boyitib kelinmoqda. Bu tadqiqotlarda O‘zbekiston xalqining ma’naviy birlashuvi, buyuk ajdodlarimiz boy ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, xususan millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik munosabatlari va boshqa masalalar xolis o‘rganilmoqda. Zero, “biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi, ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat – deb bejizga ta’kidlamaydi davlatimiz rahbari<sup>1</sup>. Shu o‘rinda, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida vujudga kelgan ko‘pmillatlikning mohiyati, demografiya muammolarini o‘rganish O‘zbekistonning mustamlaka davr tarixiga yangi ma’lumotlar kiritishga xizmat qiladi. Bu esa tadqiqot mavzusining fandagi dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-sonli “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi farmoni hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” farmoni va sohaga doir boshqa bir qator me‘yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> Elektron resurs: Мирзиёев Ш. Жамият ҳаётининг танаси иктисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир // 2021 йил 19 январда маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги маърузаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4089>.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrida Turkiston o‘lkasi aholisi va uning milliy tarkibi bo‘yicha alohida ilmiy tadqiqot olib borilmagan. Shunga qaramasdan, muammoga oid ilmiy izlanishlarni yaratilgan davri, yondoshuvi va hududiga ko‘ra, to‘rt guruhga bo‘lish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bularga 1) XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga oid asarlar; 2) sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar; 3) mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan ishlar hamda 4) zamonaviy xorijiy izlanishlarni kiritish mumkin. Mavzuga doir tarixshunoslik ishlarini keng tahlili alohida 1-bobning birinchi paragrafida batafsil yoritib berilgan.

**Dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida amalga oshirilayotgan ATD-1 “O‘zbekiston hududida davlatchilik tarixi: an‘analar va transformasion jarayonlar” (2021-2025-yillar) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** 1867-1917 yillarda mustamlaka Turkiston o‘lkasi aholisi va uning milliy tarkibini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Muammoning tarixshunosligini tahlil qilish;

Mavzuning manbashunoslik asoslarini tavsiflash;

Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Turkiston aholisi etnik manzarasini tarixiy jihatdan ochib berish;

Imperiyaning Turkiston aholisiga qaratilgan ijtimoiy va milliy siyosati mohiyatini yoritib berish;

O‘lkada ko‘pmillatlikning shakllanishi va aholi milliy tarkibidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish;

O‘lkaning shahar va qishloqlarida kechgan demografik o‘zgarishlarni ko‘rsatib berish;

Turkiston aholisining diniy tarkibi va xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish hisoblanadi.

**Tadqiqotning obykti** sifatida 1867-1917 yillarda mustamlaka Turkiston o‘lka aholisi masalasi belgilangan.

**Tadqiqot predmetini** mustamlaka davrida Turkiston aholisi milliy, diniy tarkibining tahlili hamda o‘lkadagi demografiya bilan bog‘liq o‘zgarishlar tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda muammoviy xronologik va qiyosiylik tahlillari, statistik va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Markaziy Osiyo xonliklarida yashagan o‘troq va ko‘chmanchi aholi etnik qatlamlari bilan birgalikda, turli kam sonli milliy guruhlar (yahudiylar, eroniylar, hindlar, afg‘onlar, uyg‘urlar va b.) ning xo‘jalik-madaniy turmush tarzi,

mashg'uloti, urug'-qabilachilik munosabatlari kabi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hamda hududiy yashash jihatlari aniqlangan;

Turkiston aholisiga qaratilgan milliy siyosati negizida metropoliyaning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa manfaatlar ko'zlangan siyosati natijasi o'laroq, mahalliy aholi qatlamlari (amaldorlar, dehqonlar, hunarmandlar va b.)ning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyini pasayishi va inqirozi holatlari, shuningdek aholi milliy haq-huquqlarining buzilishi hamda o'lka aholisi etnik manzarasining o'zgarishiga ko'rsatgan oqibatlari mohiyati ochib berilgan;

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston aholisining milliy va diniy tarkibi G'arb hamda Sharq xalqlari (slavyanlar, yevropaliklar va b.) va turli diniy konfessiyalar hisobiga ma'lum darajada ko'payganligi, turli milliy guruhlarning o'zaro miqdoriy nisbati, hududiy joylashuvi ko'rsatkichlari yillar kesimida va viloyatlar bo'yicha asoslab berilgan;

Turkiston o'lkasi shahar va qishloqlarida kechgan demografik o'zgarishlar asosan, aholi dinamikasi, xo'jalik hayotidagi o'zgarishlar, mehnat bandligi va uning yangi ko'rinishlari (sanoat, transport, moliya, kasb-hunar va b.)ning tashkil topishi kabi sohalarda kechganligi bilan birga, mahalliy va rus xalqlari o'rtasidagi bag'rikenglik munosabatlari tarixi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Tarixiy manbalar va arxiv hujjatlarini tahlilga qilish orqali Rossiya bosqini arafasida Turkiston aholisining etnik manzarasi, turli milliy guruhlarning hududlar bo'ylab joylashuvi, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda tutgan o'rnini bahsli va kam o'rganilgan masalalariga aniqlik kiritilgan;

1867-1917 yillarda Turkiston o'lkasida vujudga kelgan ko'pmillatlilik jarayoni mustamlakachilik natijasi ekanligi, tub joy aholi va chetdan kelgan milliy, etnik guruhlar va ularning soni, demografiyasi bilan bog'liq o'zgarishlarga oid bir qator yangi ma'lumotlar ochib berilgan;

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ko'plab diniy konfessiyalarga mansub diasporalarning shakllanishi, mahalliy va rus xalqlarining o'zaro munosabatlarining tolerantlik jihatlari ochib berilishi yoshlarda xalqparvarlik, bag'rikenglik fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** 1867-1917 yillar oralig'ida Turkiston aholisi tarixi va uning milliy tarkibi masalalari birlamchi manbalar, jumladan O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlari, statistik va matbuot nashrlari hamda boshqa ilgari ilmiy muomalaga kiritilmagan manbalarga asoslangan. Dissertatsiyadan olingan ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etilgani va ularning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 1867-1917 yillarda Turkiston o'lkasi aholisi va uning milliy tarkibi tarixiga oid nazariy-metodologik xulosalarni ishlab chiqilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston aholisi tarixi bilan bog'langan tadqiqotlarni bajarilishi, shuningdek, ta'lim muassasalarida XIX–XX asrlar boshlarida O'zbekiston aholisi tarixiga doir

maxsus kurslar tashkil etish, o'quv qo'llanma, ishlanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** 1867-1917 yillarda Turkiston aholisi va uning milliy tarkibi tarixiga oid ilmiy natijalar va xulosalari asosida:

Markaziy Osiyo xonliklarida yashagan o'troq va ko'chmanchi aholi etnik qatlamlari bilan birgalikda, turli kam sonli milliy guruhlar (yahudiylar, eroniylar, hindlar, afg'onlar, uyg'urlar va b.) ning xo'jalik-madaniy turmush tarzi, mashg'uloti, urug'-qabilachilik munosabatlari kabi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hamda hududiy yashash jihatlariga doir ilmiy xulosalardan O'zMTRK "O'zbekiston tarixi" telekanalida 2023-yil 31-yanvarda efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvini yaratishda foydalanilgan (O'zMTRK, "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2023-yil 17-fevraldagi 02-31-261 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy xulosalar tarix fanida Markaziy Osiyo xalqlari milliy tarkibi to'g'risidagi ilmiy bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qilgan;

Turkiston aholisiga qaratilgan milliy siyosati negizida metropoliyaning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa manfaatlar ko'zlangan siyosati natijasi o'laroq, mahalliy aholi qatlamlari (amaldorlar, dehqonlar, hunarmandlar va b.)ning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyini pasayishi va inqirozi holatlari, shuningdek aholi milliy haq-huquqlarining buzilishi hamda o'lka aholisi etnik manzarasining o'zgarishiga ko'rsatgan oqibatlari mohiyatiga oid ilmiy natijalardan O'zMTRK "O'zbekiston tarixi" telekanalida 2023-yil 31-yanvarda efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvini yaratishda foydalanilgan (O'zMTRK, "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2023-yil 17-fevraldagi 02-31-261 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijalar keng jamoatchilikka Turkiston aholisining etnik manzarasi va mustamlaka milliy siyosat mohiyatiga oid ma'lumotlarni yetkazishga xizmat qilgan;

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston aholisining milliy va diniy tarkibi G'arb hamda Sharq xalqlari (slavyanlar, yevropaliklar va b.) va turli diniy konfessiyalar hisobiga ma'lum darajada ko'payganligi, turli milliy guruhlarning o'zaro miqdoriy nisbati, hududiy joylashuvi ko'rsatkichlari yillar kesimida va viloyatlar bo'yicha ilmiy xulosalardan "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi loyihalari uchun ilmiy axborot sifatida foydalanildi (O'zR Madaniy meros agentligining 2024-yil 2-apreldagi 04-05/1178-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy xulosalar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yashagan turli xalqlar va diniy konfessiyalar, ularning o'zaro munosabatlariga oid bilimlarni oshirishga xizmat qilgan;

Turkiston o'lkasi shahar va qishloqlarida kechgan demografik o'zgarishlar asosan, aholi dinamikasi, xo'jalik hayotidagi o'zgarishlar, mehnat bandligi va uning yangi ko'rinishlari (sanoat, transport, moliya, kasb-hunar va b.)ning tashkil topishi kabi sohalarida kechganligi bilan birga, mahalliy va rus xalqlari o'rtasidagi bag'rikenglik munosabatlari tarixi oid ilmiy natijalardan "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi loyihalari uchun ilmiy axborot sifatida foydalanildi (O'zR Madaniy meros agentligining 2024-yil 2-apreldagi 04-05/1178-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijalar Turkiston o'lkasida kechgan demografik

o'zgarishlar, mahalliy va rus xalqlari o'rtasidagi munosabatlarga aniqlik kiritishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy konferensiya va seminarlarda, shundan 2 ta xalqaro hamda 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobasityadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarinnng e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya komissiyasi tomonidan falsafa doktorligi dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 ta xorijiy jurnal va 2 ta respublika konferensiya ilmiy to'plamlarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati, glossariy hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 125 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Muammoning tarixshunosligi va manbaviy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida muammoning tarixshunosligi tahlili va mavzuning manbashunoslik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot mavzusi shu vaqtga qadar alohida masala sifatida o'rganilmagan bo'lsa-da, 1867-1917 yillarda Turkiston o'lkasining mustamlaka sharoitida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixiga oid izlanishlarni, xususan aholi etnik tarkibi to'g'risidagi masalani o'rganilgan davri, hududi, yondoshuv uslubi xususiyatlariga ko'ra to'rt guruhga bo'lib tahlil qilindi. Bular: 1) XIX asr 1-yarmi va XX asr boshlariga oid izlanishlar; 2) Sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar; 3) Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan ishlar hamda 4) zamonaviy xorijiy tadqiqotlar hisoblanadi.

Birinchi davrga taalluqli bo'lgan ishlar sirasiga XIX asr birinchi yarmida O'rta Osiyoga kelgan va mustamlaka sharoitida Turkistonda bo'lgan rus va xorijlik sayyohlar, elchilar, harbiylar, ma'murlarga tegishli asarlar kiradi. Jumladan, E.Meyendorf, N.Xanikov, A.Borns, A.Vamberi, V.Radlov, V.Nalivkin, A.Xoroshxin, M.Albrext, J.Kurzon M.Virskiy, N.Ostroumov va boshqa mualliflarning<sup>2</sup> asarlari shular jumlasidan sanaladi. Rossiya bosqini arafasida O'rta

---

<sup>2</sup> Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. -279 с.; Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару.- Москва, 1975. -182 с.; Хорошхин А.Л. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. – СПб., 1876. – С. 142-516; Вирский М. Сведения о Зерафшанском округе. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып.4. – СПб., 1876. – С.10-56; Радлов В.В. Средняя Зарафшанская долина. – ЗИРГО по отд. этнографии. – СПб., 1880. Том VI. – С. 1-92; Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь. – Ташкент, 1913. – 144 с.; Гребенкин А.Д. Узбеки // Туркестанский сборник. Т. 57. –С.51-109; Остроумов Н.П. Сарты.

Osiyo xalqlari etnik guruhlarini o‘zaro qiyoslashda bir tomonlama xususiyat kasb etgan qarashlar sharqshunos N.Xanikovga tegishli bo‘lsa, E.Meyendorfnung Buxoro va Xorazm xalqlariga tegishli ma‘lumoti raqamlar bilan tavsiflanadi. Zarafshon, Samarqand viloyatida yashagan etnik guruhlar to‘g‘risida A.Xoroshxin ayrim bir-biriga zid qarashlar bildirgan. V.Radlov asosan, O‘rta Zarafshon vohasi aholisini tili bo‘yicha guruhlariga ajratib tavsif bergan.

Rus ma‘murlar orasida N.P.Ostroumov “sartlar alohida xalq” to‘g‘risidagi nuqtai-nazarni himoya qilish barobarida, “bu masala shunchalik murakkabki, uni oxirigacha mufassal hal etish etnolog, filolog va tarixchining birgalikda mehnatini talab etadi”, deb hisoblagan. V.Nalivkinning bir qator ishlarida<sup>3</sup>, Turkistonning umumiy etnografiyasi va aholi etnik tarkibi to‘g‘risida qiziqarli ma‘lumotlar to‘plangan. XIX-XX asrlar boshlarida Turkiston aholisi, ularning tili, mashg‘uloti, tarkibi masalalari xorijlik A.Borns, A.Vamberi, Maks Albrext, Jorj Kurzon, Yujin Skaylerlar<sup>4</sup> ishlarida qiziqarli bayon etilgan.

Ikkinchi guruhga sovet davrida olib borilgan izlanishlar jumlasiga V.Bartold, P.Galuzo, A.Semenov, N.Yakovlev, P.Ivanov, S.Radjabov, A.Fomchenko, M.Vaxabov, Suxareva, B.Karmisheva va boshqalarning ishlari<sup>5</sup> tahlil etildi. “O‘rta Osiyoning o‘troq aholisi birinchi navbatda o‘zini musulmon, keyin esa ma‘lum bir shahar yoki joyga mansub deb hisoblaydi” deb qayd etgan V.Bartold<sup>6</sup> qarashlari, O‘zbekiston, Tojikistonning janubiy hududlarini tadqiq etgan B.Karmisheva asarida<sup>7</sup>, o‘zbek va tojiklarning urug‘-aymoqlari tasnif etiladi. P.Galuzo, A.Fomchenko va boshqalar ishlarida imperiya mustamlakachilik siyosatining ustuvor maqsadlari, ko‘chirish, ruslashtirish siyosati va uning oqibatlari yoritib beriladi. M.Vaxabov kitobida<sup>8</sup>, xalqlar tarkibi tahlili va sinfiylik qarashlari asosida etnomadaniy jarayonlar bayon etiladi. Yana bir qator olimlar (P.Ivanov,

---

Этнографическое материалы. – Ташкент, 1896. Вып. 1. – 272 с.; Остроумов Н. Значение названия «сарт» // Туркестанские ведомости. 1884. № 28. 17 июль; 1884. № 29. 24 июль; 1884. № 30. 31 июль.

<sup>3</sup> Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь. – Ташкент, 1913. – 144 с.; Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы / В. Наливкин, М. Наливкина. -Казань: Тип. Императорского университета, 1886. - 245 с.

<sup>4</sup> Борнс А. Путешествие в Бухару. Часть. III. – М., 1850. – С. 472-475; Вамбери А. Очерки Средней Азии. – М., 1868. – 361с.; Albrecht, Max. Russisch Centralasien: Reisebilder aus Transkaspien, Buchara und Turkestan. – Hamburg: Verlagsanstalt und Druckerei A.-G. (vormalrs J.F. Richter), 1896; Curzon George N. Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russia question. Frank Cass & Co LTD, 1967. – P. 220-230; Meakin Annette M.B., In Russian Turkestan. A garden of Asia and its people. London: The Balantyne press, 1903. – P. 80-90; Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Кўкон, Бухоро ва Ғулжага сайёҳат кайдлари. Инглиз.тилидан З.Саидбобоев. – Тошкент, 2019. -336 б.

<sup>5</sup> Галузо П.Г. Туркестан-коллония (Очерк истории Туркестана от завоевания русскими до революции 1917 г.). – М., 1929; Яковлев Н.Н. Внешняя и национально-колониальная политика царизма в 60-70 гг. XIX в. Народы Средней Азии в середине XIX в. Завоевание Средней Азии. –М., 1940; Семенов А. К вопросу происхождения и составе узбеков Шейбанихана. Материалы по истории узбеков и таджиков. Труды т.12. Выпуск 1. – Сталинабад, 1954. – 150 с.; Раджабов С.А. Роль великого русского народа в исторических судьбах народов Средней Азии. - Ташкент, 1955; Иванов П.П. Очерк по истории Средней Азии (XVI-XIX в). – М., 1958. - 239 с.; Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX в начале XX века (Социально-экономический аспект). -Ташкент, 1988; Вахобов М. Ўзбек социалистик миллати. –Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1960. – 536 б.; Сухарева О.А. Бухара: XIX–начало XX в. (позднефеодальный город и его населения).– М., 1966; Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). - Москва: Наука, 1976. - 323 с.

<sup>6</sup> Бартольд В.В. Сарт // Бартольд В.В. Сочинения. М., 1964. Т.2, ч.2. - С.528-529.

<sup>7</sup> Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. (по этнографическим данным – Москва: Наука, 1976. - 323 с.

<sup>8</sup> Вахобов М. Ўзбек социалистик миллати. –Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1960. – 536 б.

O.Suxareva va b.) ishlari XIX – XX asrlar boshlariga oid xonliklar aholisi milliy tarkibini qiyoslashga imkon berdi.

Uchinchi guruh mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yangicha ilmiy-uslubiy yondoshuvlar asosida yaratilgan ilmiy ishlar majmuidan iborat. Xususan, H.Ziyoyev, M.Abramov, D.Alimova, Azamat Ziyoyev, S.A‘zamxo‘jayev, G.Agzamova, G.Mixailova D.Ziyoyeva, F.Aliyeva, N.Abduraximova, F.Ergashev, Sh.G‘afforov, N.Mahkamova, A.Ashirov, S.Davlatova, B.Ergashev, A.Malikov, G.Normurodova, X.Jo‘rayev, Sh.Ravshanov, U.Mattiyev, O.Yarmatov va boshqa mualliflar<sup>9</sup>, “O‘zbekistonning yangi tarixi” (1-qism), “Tarix shohidligi va saboqlari”, “O‘zbekiston tarixi”<sup>10</sup> va boshqa asarlar ana shunday tadqiqotlar sirasiga kiradi.

O‘rta Osiyo xonliklari aholisining turmush-tarzi, milliy guruhlar va diniy konfessiyalar hayotiga bag‘ishlangan bir qator monografiya, qo‘llanmalar<sup>11</sup> dissertatsiyaning nazariy-metodologik asoslarini to‘ldirishga xizmat qildi. O‘rta Osiyo xalqlari etnik tarixi va mintaqada yuz bergan demografik jarayonlar tahlili

<sup>9</sup> Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 1993; Абрамов М. Бухарские евреи. -Самарканд, 1993. -84 с ; Зиёев Х. 3. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш (XVII–XX аср бошлари). –Т.: Шарқ, 1998. - 480 б.; Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. -Тошкент: O‘zbekistonб 2015. - 680 б.; Алимова Д.А. История как история, история как наука. В 2-х т. – Ташкент: Узбекистан, 2009. Т.2. – 181с.; Шу муал. Ўзбек тилининг тарихи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2005, 30-сон; Зиёева Д.Х. Туркистонда миллий озодлик ҳаракати. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашри, 2000. – 176 б.; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 368 б.; Ахмаджонов Ф.А. Россия империяси Марказий Осиёда. – Тошкент: 2003. – 270 б.; Абдурахимова Н, Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – 240 б.; Фафуров Ш.С. Туркистоннинг ижтимоий-сиёсий ва маърифий ҳаёти тарихидан. – Самарканд, 1996. – 112 б.; Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917). – Ташкент: Фан, 1997. – 232 с.; G‘afforov Sh. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko‘chirilganlar. - Т.: Fan, 2006; Маҳкамова Н.Р. Социальная структура общества на территории Узбекистана: традиции и трансформации (конец XIX – конец 30-х годов XX в). Автореф. дисс. ... док. ист. наук. – Ташкент, 2009; Ўрта Осиё халқларининг этник тарихи ва минтақада юз берган демографик жараёнларнинг манбаларда акс этishi (XVI-XIX аср биринчи ярми). - Тошкент: Yangi nashr, 2011. -128 б; Эргашев Б. Делопроизводственная деятельность канцелярии Туркестанского генерал-губернаторства (историко-источниковедческий анализ). – Ташкент: 2015; Маликов А. История Самарканда (с древних времен до середины XIV века). Том 1. – Ташкент: Paradigma, 2017. – 336 с.; Алиева Ф., Шарипов С. Ватан ягонадир, Ватан биттадир. -Тошкент: Mashhur Press, 2018. -242 с.; Агзамова Г. XVI-XIX асрнинг биринчи ярмида Хоразмда кечган урбанизацион жараёнлар тарихидан // Ўтмишга назар. 2020, №5. Б.4-10; Жўраев Х. Туркистонга кўчирилган аҳолининг ижтимоий ва иқтисодий ҳаёти (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фан. PhD автореф. -Фарғона, 2021; Равшанов Ш. Туркистонга Россия империяси аҳолиси кўчиб келишининг ижтимоий тарихи (XIX аср охири – 1917 йил). Тарих фан. PhD автореф. -Тошкент, 2022; Маттиев У. XIX аср ўрталари – XX аср бошларида Туркистонда афғон фуқаролари тарихи. Тарих фан. PhD автореф. - Самарқанд, 2022; Ярмагов О. Туркистонда хинд фуқаролари тарихи (XIX аср иккинчи ярми - XX аср бошлари). Тарих фан. PhD автореф. - Самарқанд, 2022.

<sup>10</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-қисм. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. - 464 б.; Очерки по истории государственности Узбекистана. -Ташкент: Шарқ, 2001. – 208 с.; Тарих шохидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Тошкент: Шарқ; 2001. – 463 б.; История Узбекистана (XVI – первая половина XIX в.). – Ташкент: Фан, 2012. - 776 с. ва б.

<sup>11</sup> Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 1993; Абрамов М. Бухарские евреи. -Самарканд, 1993. -84 с.; Михалева Г.А. Узбекистан в XVIII – первой половине XIX века: ремесло, торговля и пошлины. – Ташкент: Фан, 1991. – 112 с.; Зиёев Х. 3. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш (XVII–XX аср бошлари). –Т.: Шарқ, 1998. - 480 б.; Сағдуллаев А. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент: Академия, 2000. – 271 б.; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 368 б.; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. - 556 б.; Алиева Ф., Шарипов С. Ватан ягонадир, Ватан биттадир. -Тошкент: Mashhur Press, 2018. -242. Маликов А. Қурама // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11-жилд. - Тошкент. 2005., ва бошқалар.

yirik fundamental ishlarda<sup>12</sup> o‘z aksini topgan bo‘lib, bu dissertatsiya uchun Rossiya bosqini arafasidagi mintaqa aholisi etnik manzarasini yoritishda muhim bo‘ldi. Turkiston o‘lkasida mustamlaka boshqaruv tizimi, milliy siyosati oqibatlari, ko‘chirilgan xalqlar, jamiyat ijtimoiy tuzilmasi va qatlamlar holati masalalari ochib berilgan izlanishlar<sup>13</sup> orqali, o‘sha davr aholi milliy va diniy tarkibida yuz bergan o‘zgarishlarni aniqlash imkonini berdi. “O‘zbekistonda millatlararo tolerantlik: tarix va zamonaviylik” va “O‘zbekistonning etnik atlası” kitoblarida esa<sup>14</sup>, Turkistonning mustamlaka sharoitida ko‘p millatlilikning shakllanish jarayonlari asosli tahlil etilgan. Yana bir qator olimlarning ishlari Turkiston taraqqiyparvarlarini millat masalasiga oid qarashlarini yoritishga xizmat qildi<sup>15</sup>.

To‘rtinchi guruhni MDH va xorijda olib borilgan zamonaviy izlanishlar tashkil etib<sup>16</sup>, mazkur ilmiy ishlarda Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston xalqlarining xonliklar davri so‘nggi choragi va mustamlaka davri etnik tarixi, qisman demografiyasi xususida ma‘lumotlar beriladi. Avstriyalik olim A.Kappeler kitobida<sup>17</sup>, XIX asr oxiri va XX asr boshida imperiya mustamlakalarida kechgan etnik o‘zgarishlar yoritib berilsa, amerikalik tarixchi Adib Xolidning Markaziy Osiyo musulmon aholisining siyosiy, madaniy o‘zgarishlariga oid izlanishlarida<sup>18</sup>, mustamlakachilik davridagi mahalliy xalqlar intellektual hayoti, rus va musulmon

---

<sup>12</sup> Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. –Тошкент: O‘zbekiston 2015. - 680 б.; Ўрта Осиё халқларининг этник тарихи ва минтақада юз берган демографик жараёнларнинг манбаларда акс этди (XVI-XIX аср биринчи ярми). Масъул мух. Д.Алимова, А.Аширов. -Тошкент: Yangi nashr, 2011. -128 б.; Дониёров А.Х., Бўриев О., Аширов А.А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи. Ўқув кўланма. – Тошкент: Янги нашр, 2011. -316.

<sup>13</sup> Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917). – Ташкент: Фан, 1997. – 232 с.; Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-қисм. Туркiston чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 464 б.; Абдурахимова Н, Эргашев Ф. Туркistonда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – 240 б.; G‘afforov Sh. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko‘chirilganlar. - T.: Fan, 2006. -223 б.; Маҳкамova Н.Р. Социальная структура общества на территории Узбекистана: традиции и трансформации (конец XIX – конец 30-х годов XX в). Автореф. дисс. ... док. ист. наук. – Ташкент, 2009.; Нормуродова Г. XIX аср охири – XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Янги нашр, 2013. – 160 б.; Нормуродова Г. Бухоро амирлиги ижтимоий стратификацияси ва аҳоли қатламларининг жамият ҳаётидаги ўрни. Монография. - 294 б.; Жўраев Х. Туркistonга кўчирилган аҳолининг ижтимоий ва иқтисодий ҳаёти (XIX аср охири – XX аср бошлари). PhD автореф. – Фарғона, 2021; Равшанов Ш. Туркistonга Россия империяси аҳолиси кўчиб келишининг ижтимоий тарихи (XIX аср охири – 1917 йил). PhD автореф. –Тошкент, 2022.

<sup>14</sup> Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Межнациональная толерантность в Узбекистане: история и современность. – Т.: Университет, 2004. – 179 с.; Этнический атлас Узбекистана. – Узбекистан, 2002. - 452 с.

<sup>15</sup> Алимова Д. Ўзликни англаш машаққатлари.. Аъзамхўжаев С. Туркiston Мухторияти: миллий давлатчилик қурилиши тажрибаси. ..., – 168 б.

<sup>16</sup> Каппелер А. Россия - многонациональная империя. – М., 2000. – 344 с.; Seymour Becker. Russian’s protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865-1924. London and New York. 2005. 348 p.; Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley, 1998. P. 184–215; Ферганская долина: этничность, этнические процессы, этнические конфликты / Абашин С.Н., Бушков В.И. (отв. ред.). –М.: Наука, 2004. -226 с.; Абашин С. Н. Национализмы в Средней Азии: в поисках идентичности. — СПб.: Алетейя, 2007. - 312 с.; Центральная Азия в составе Российской империи. –М.: Новое литературное обозрение, 2008. – 464 с.; Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868-1910 A Comparison with British India. Oxford University PRESS 2008. - 364 p.; Миронов Б.Н. Российская империя: от традиции к модерну. Том 1. – СПб.: Дмитрий Буланин, 2014. – 896 с.; Кадырбаев А.Ш., Сыздикова Ж.С. Страна в Междуречье. (Очерки истории Узбекистана). – Москва, 2017. – 320 с.

<sup>17</sup> Каппелер А. Россия-многонациональная империя. Перевод с нем. С.Червонная. – М.: «Прогресс-Традиция», 2000. – 344 с.

<sup>18</sup> Adeeb Khalid. Central Asia: A New History from the Imperial Conquests to the Present. – Princeton, N.J.: Princeton University Press, 2021. 556 pp.; Adeeb Khalid. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley, 1998. P. 184–215.

aholi munosabatlari, millat masalasi tahlil etiladi. XIX–XXI asrlar boshlarida O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan Turkiston, Farg‘ona viloyati misolida aholi etnik tarixi va etnik jarayonlar S.Abashinning ishlarida<sup>19</sup> ifoda topgan. Rossiyalik tarixchi Mironov kitobida, imperiyaning O‘rta Osiyoda olib borilgan milliy siyosat jihatlari yoritiladi<sup>20</sup>. Shuningdek, yana bir qator mualliflik ishlarida<sup>21</sup>, Turkiston xalqlari, mintaqaning xilma-xil etnik va konfessial manzarasi to‘g‘risida tarixshunoslik bahs-munozaralari bayon etiladi. Qisqasi, tarixshunoslik ishlar tahliliga ko‘ra, 1867-1917 yillarda Turkiston o‘lkasi aholisi va uning milliy tarkibi masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan va bu tanlangan mavzuning fandagi dolzarbligini belgilaydi.

Rossiya imperiyasining mustamlakasi davrida Turkiston aholisi tarixini yorituvchi manbalar yaratilgan davri, hududi, mazmun-mohiyatiga ko‘ra to‘rt guruhga ajratildi: 1) mahalliy mualliflar asarlari; 2) arxiv materiallari; 3) statistik materiallar va 4) davriy matbuot nashrlari. Birinchi guruh manbalari imperiya bosqini arafasidagi xonliklar va mustamlaka Turkistonda aholi hayotining ijtimoiy, madaniy jihatlari Ahmad Donish, Mirza Abdulazim Somiy, Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiyalar, Mirza Olim Mahdumhoji, Muhammad Solihxo‘ja, Mirza Salimbek kabi bir qator tarixchilar asarlarida<sup>22</sup> hamda milliy taraqqiyparvarlardan M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, A.Avloniy, I.Ibrat, Ahmad Zaki Validiy<sup>23</sup> va boshqa vakillar qarashlarida o‘z ifodasini topgan.

Ikkinchi guruh manbalari arxiv materiallari majmuidan iborat bo‘lib, bular asosan O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA)da saqlanayotgan bir qator jamg‘armalardan<sup>24</sup> tashkil topgan. Ushbu jamg‘armalar orqali, o‘lkada yashagan o‘troq va ko‘chmanchi aholi, yer-mulkchilik masalalari, moliya, xo‘jalik ta‘minotlari, ko‘chirilgan aholi guruhlari, aholi milliy va diniy tarkibi to‘g‘risida

---

<sup>19</sup> Абашин С. Н. Национализмы в Средней Азии: в поисках идентичности. — СПб.: Алетейя, 2007. — 312 с.; Абашин С. Население Ферганской долины // Ферганская долина: этничность, этнические процессы, этнические конфликты / Абашин С.Н., Бушков В.И. (отв. ред.). — М.: Наука, 2004. — С. 38-101.

<sup>20</sup> Миронов Б.Н. Российская империя: от традиции к модерну. Том 1. — СПб.: ДМИТРИЙ БУЛАНИН, 2014. — С.121.

<sup>21</sup> Центральная Азия в составе Российской империи. —М.: Новое литературное обозрение, 2008. — 464 с.; Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910. A Comparison with British India. Oxford University Press, 2008; Кадырбаев А.Ш., Сыздилова Ж.С. Страна в Междуречье. (Очерки истории Узбекистана). — Москва, 2017. — 320 с.

<sup>22</sup> Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. — 242 б.; Муҳаммад Солиххўжа ва унинг “Тарихи жадидаи Тошканд” асари / Султонов Ў.А. — Тошкент: Ўзбекистон, 2009. — 269 б.; Трактат Ахмад Дониша. История Мангитской династии. // Пер.И. А.Неджавофой. — Душанбе, 1967;. Муҳаммад Ҳакимхон. Мунтахаб ат-таворих (Хўқанд ва Бухоро тарихи). Тарж. Ш.Воҳидов. —Тошкент, 2010. —716 б.; Мунис ва Огахий. Фирдавс ул-икбол (Бахту-саодат жаннати). — Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. — 520 б.; Исҳоқхон тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. —Тошкент: “Маънавият”, 2005. Нашрга тайёр. изоҳ муал.: У.Долимов, Н.Жабборов. www.ziyouz.com kutubxonasi; Мирза Салимбек. Кашкўли Салимий. Таварихи мутақаддимин ва мутааххирин / Форс-тожик тилидан Н.Йўлдошев таржимаси. —Бухоро, 2003, va b.

<sup>23</sup> Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. 1-2 жилдлар. — Тошкент: Academynashr, 2018; Мунаввар қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. -Тошкент, 2003; Валихонов Ч. Собр. соч. Т. П. — Алма-Ата, 1962; Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Бўлингани бўри ер // Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун кураши тарихидан хотиралар. Бошқирд тилидан Ш.Турдиев тарж. —Тошкент: Адолат, 1997; Лапин С.А. О значении и происхождении слова «сарт» // Туркестанские ведомости. 1894. № 36; № 38; № 39.

<sup>24</sup> O‘z MA, I-1-jamg‘arma Туркистон генерал губернаторлиги девонхонаси; И-17-jamg‘arma Сирдарё вилояти бошқармаси; И-18-jamg‘arma Самарқанд вилояти бошқармаси; И-19-jamg‘arma Фарғона вилояти бошқармаси; И-22-jamg‘arma Катта-кўрғон уезди бошқаруви; И-36-jamg‘arma Тошкент шахрини бошқаруви; И-907-jamg‘arma Амударё бўлими бошлиғи девонхонаси; 27-jamg‘arma Туркистон Республикаси марказий халқ хўжалиғи ва б.лар.

hukumat statistika ma'lumotlari dissertatsiya vazifalarini yoritishga xizmat qildi. Uchinchi guruhni tashkil etuvchi statistik nashrlar, to'plamlar, hisobotlar<sup>25</sup> tadqiqot uchun o'lka aholisining milliy guruhlari, diniy jamoalar, ularning mashg'uloti, shahar va qishloqlarda kechgan demografik o'zgarishlar kabi masalalarni aniqlashda ma'lum darajada yordam berdi. To'rtinchi guruh manbalarini A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanayotgan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda chiqqan davriy matbuot materiallari tashkil etib, bular ishda munozarali masalalarni yoritishda ahamiyatli bo'ldi.

Dissertatsiyaning **“1867-1917 yillarda Turkiston aholisi: an'anaviylik va ko'pmillatlilikning shakllanishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Turkiston aholisining etnik manzarasi tarixi, imperiyaning Turkiston general-gubernatorligi aholisiga qaratilgan ijtimoiy va milliy siyosati mohiyati hamda o'lkada ko'pmillatlilikning shakllanishi va aholi milliy tarkibidagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Ma'lumki, turli taraqqiyot bosqichlarida hozirgi O'zbekistonning mintaqadagi geosiyosiy o'rni Sharq va G'arbdan ko'chib kelganlar e'tiborini o'ziga tortgan. Tub joy aholisining bag'rikengligi turli xalqlarning o'rinish qolishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qozoqlar, qirg'izlarning joylashuv makonlari muayyan darajada barqarorlashib, birlashish va qo'shilish jarayonlari davom etgan<sup>26</sup>.

Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Turkiston o'lkasi Markaziy Osiyoning katta qismini egallab, hozirgi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va tutash hududlarni qamrab olgan edi. Bu davrda mintaqaning asosiy qismi Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari kabi yirik davlatlar egallagan bo'lib, xonliklar aholisining etnik manzarasi juda xilma-xil edi. Aholi tarkibidagi etnik guruhlar, birlashmalar manbalarda “jamoat”, “el”, “qavm”, “urug'”, “qabila”, “xalq”, kabi iboralar bilan yuritilgan. Xususan, “Tarixi Turkiston” asarida amirlisi aholisi to'g'risida: *“Aholisi lisoni forsiy ila mutakallim va suniy mazhabdurlar. Andak miqdorda shi'ayi eroniylar ham bordur. Turkman urug'i ham ko'p bo'lub, bular aksar Jayhun atrofida xaymanishivdurlar. Shimoli-sharq tarafdagi sahrolarida bo'lsa qozoq, qalmiq, qoraqalpoq urug'laridindin. Shahar va qishloqlarda avoili islomdin buyon yerlashib qolgan arablar ham bordur. Yahudiylar oz miqdorda bo'lub Buxoroda va ba'zi qasabalarda sokindur”*<sup>27</sup>, deb aytiladi. XIX asr 1-yarmida Buxoro amirligi aholi soni 2 mln.dan 2,5 millionga yetgan. Aholi orasida turkiy xalqlar 85 % ga yaqin, eroniy xalqlar 12 % ga yaqin va boshqa xalqlar 3 % ni tashkil etgan<sup>28</sup>. Hududning janubi tadqiq

---

<sup>25</sup> Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. – СПб., 1904, 1905. Под ред. Н.А. Тройницкого. Изд. центр. стат. комитета Министерства внутренних дел; Кауфман К.П. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П. фон-Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 - 25 марта 1881 г. СПб. 1885; Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К.К. Паленом. - Поземельно-податное дело; Переселенческое дело в Туркестане. - СПб, 1910; Сборник материалов для статистики Самаркандской области за 1887-1888 гг. – Самарканд. 1890.

<sup>26</sup> Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 1993. 36-45-бетлар.

<sup>27</sup> Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. – Б. 191-192.

<sup>28</sup> Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида. –Тошкент: O'qituvchi НМИУ, 2005. – Б.85.

etilgan ishlarda, urug‘-qabilachilik munosabatlariga ega bo‘lmagan, o‘troq yashash tarzini olib borgan guruhlar o‘zbek va tojik chig‘atoylariga ajratiladi<sup>29</sup>.

Tadqiqotchilar fikricha, so‘nggi o‘rta asrlarda yahudiylarning O‘rta Osiyodagi iqtisodiy va madaniy markazi Buxoro bo‘lgan va bu yerda ko‘p sonli yashaganligi bois Buxoro yahudiylari nomini olgan<sup>30</sup>. Uzoq vaqtlardan yashab kelayogan eroniyalar “forslar” deb ham atalgan, ular tillar jihatidan fors-tojik va turk guruhiga bo‘lingan<sup>31</sup>. Bu davrda Xiva xonligi aholisining asosiy qismi o‘zbeklar, bundan tashqari, yarim ko‘chmanchi turkmanlar, qoraqalpoqlar, kam sonli yahudiylar, tojiklar yashagan. Farg‘ona vohasining o‘ziga xos geografik joylashuvi bu yerga nihoyatda turli xil etnik guruhlarining kirib kelib joylashishiga sabab bo‘lgan. Bu haqida Is‘hoqxon Ibrat “*Farg‘ona aholisi aksariyatda o‘zbek, sort, tojik, qoraqalpoq, qipchoq tog‘ taraflarida ... qirg‘iz - yerli xalqlar bulardin iboratdur. Aqliyat ila ajnabalar tijorat ila muxtalitdur. Bulardin juhud, hindi, arman, pirsion, gurzin va bo‘lak xalqlar aqliyatdadurlar*”<sup>32</sup>, deb aytadi. Xonlikda o‘zbek, tojik, qirg‘iz, qoraqalpoq, uyg‘ur, qoshg‘ar, lo‘li, hind, qisman yahudiylar yashagan. Aholining ma‘lum qismi qurama (“aralashgan”) etnik guruhiga tegishli bo‘lib, ular Qurama viloyatida (Xo‘jand va Toshkent oralig‘i) yashagan. XVIII–XIX asrlar o‘rtalaridan Farg‘ona vodiysiga Sharqiy Turkistondan ko‘plab aholi ko‘chib kelgan. “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida, “qaboiliya” va “elatiya” sifatida ko‘chmanchi chorvador aholi, ya‘ni qozoq va qirg‘iz urug‘lari<sup>33</sup> nazarda tutilgan.

XVI – XVII asrlarda sart atamasi ko‘proq Farg‘ona, Toshkent va Xorazmda turg‘un yashovchi o‘zbeklarga nisbatan qo‘llanilgan<sup>34</sup>. XII – XIII asrlarga kelganda ko‘chmanchi turk-mo‘g‘ul qabilalari, nafaqat Turkiston savdo ahlini, balki ularga qo‘shib, shahar hunarmandlari va dehqonlarni ham “sart” deb atay boshlagan. XIV–XV asrlar davomida sartlarning turkiy tilda so‘zlashuvchi qatlamining nufuzi keng ko‘lamda ortib, ularning tarkibiga asrlar davomida eroniy va arabiy tilda so‘zlashuvchi etnik guruhlar singib, ular o‘zlarini turk yoki muqim turar-joylari bilan (*shoshiy, andijoniy, buxoriy, va b.*) atagan<sup>35</sup>. Xorazm tarixchilari asarlarida “sartlar”ga nisbatan izoh berilmagan bo‘lsa-da, ko‘chmanchi aholidan farqlanib, alohida guruh sifatida qayd etiladi<sup>36</sup>. Rossiya bosqinidan keyin o‘lkaning o‘troq aholisi sartlar deyilgan. XIX–XX asrlar davomida rus amaldorlari, olimlari qarashiga ko‘ra, sartlar kelib chiqishi aralash, ba‘zan faqat u yoki bu xalqqa mansub<sup>37</sup> qaralgan. Ushbu masalaga munosabat bildirgan taraqqiyparvar ziyolilar, millat deganda avvalo Turkistonda, Buxoro va Xiva xonliklarida yashovchi turkiy va forsiy tilli aholini tushunganlar<sup>38</sup>.

<sup>29</sup> Кармышева Б. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – С.66-67.

<sup>30</sup> Абрамов М. Бухарские евреи. – Самарканд, 1993. – С.10.

<sup>31</sup> Алиева Ф., Шарипов С. Ватан ягонадир, Ватан биттадир. –Тошкент: Mashhur Press, 2018. - Б.31.

<sup>32</sup> Исҳоқхон тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. –Тошкент: Маънавият, 2005. - Б.5.

<sup>33</sup> Муҳаммад Солиххўжа ва унинг “Тарихи жадидаи Тошканд” асари. – Б.23.

<sup>34</sup> Бартольд В. Сарт // Сочинения. - М., 1964. Т.2, ч.2. - С.527-529.

<sup>35</sup> Асқаров А. Кўрсатилган асар., – Б.52.

<sup>36</sup> Ўрта Осиё халқларининг этник тарихи ва минтақада юз берган демографик жараёнлар ..., – Б.49.

<sup>37</sup> О‘з МА, I-27-jamg‘arma, 1-go‘uxat, 764-ish, 289-290-vaqalar; Остроумов Н. Значение названия «сарт» // Туркестанские ведомости. 1884. № 28. 17 июл; 1884. № 29. 24 июль; Бартольд В. Сочинения. -С.527-529.

<sup>38</sup> Алимова Д. Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2005 йил, 30-сон.

Rossiya imperiyasi bosqinidan so‘ng, bu hududlarda ko‘p asrlardan buyon mavjud bo‘lib kelgan, o‘troq va ko‘chmanchi aholining diniy hamda mahalliy xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan boshqaruv tizimi o‘rniga imperiya manfaatlariga xizmat qiluvchi mustamlaka boshqaruv tartiblari o‘rnatildi. Shu o‘rinda, Turkistonda ko‘zlangan milliy siyosati negizida buyuk davlatchilik, shovinistik va ruslashtirish kabi ochiq maqsad va manfaatlar mavjud bo‘lganligi<sup>39</sup> tadqiqotlarda ta’kidlanadi. Turkiston general-gubernatorligi (1867-yil 11-aprel) tashkil etilgan paytda mahalliy aholini boshqarish tartibi yuzasidan dastlabki qadam Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini boshqarish Nizom loyihasi qabul qilindi<sup>40</sup>. Nizomga binoan, o‘lkaning barcha mahalliy aholisi shartli etnik belgisiga ko‘ra - sartlar (o‘troq) va qirg‘izlar (ko‘chmanchi)ga bo‘lindi. 1886-yilda “sart” va “qirg‘iz” so‘zlari yangi qabul qilingan Nizomdan chiqarib tashlandi. Uning o‘rniga “o‘troq yerli aholi” va “ko‘chmanchi aholi” kabi umumiy nomlar qo‘llanildi. 1897-yilda o‘lkada ilk bor Birinchi Umumrossiya aholini ro‘yxatga olish tadbiri o‘tkazildi, ammo ro‘yxatda ma’muriyat tomonidan ilgari (xonliklar davri) an’anaviy jamiyat tarkibi e’tirof etilmadi. Ro‘yxatda faqat rus fuqarolari tabaqalarga bo‘lindi. Mahalliy aholi esa, faqat “inorodtsi” (“yot kishilar”) degan umumiy bir toifaga ajratildi<sup>41</sup>. Yangi siyosiy va iqtisodiy vaziyat tufayli, Turkiston aholisi ijtimoiy tarkibida mahalliy aholiga butunlay begona bo‘lgan yangi qatlamlar paydo bo‘lib, ular yangi hukumat tayanchi sifatida ulkan imtiyozlarga ega bo‘ldi<sup>42</sup>.

Shu o‘rinda, imperiyaning o‘lkadagi milliy siyosati “mahalliy xalqlar huquqlarini kamsitilishini milliy yoki konfessional jihatdan emas, balki siyosiy sodiqlik, ya’ni “rus davlatchiligi g‘oyasi”ga xizmat qilish darajasiga qarab amal qilganligi”ni isbotlamasa-da<sup>43</sup> tub aholi umumiy imperiya tizimidagi mansab va darajalarga aralashtirilmagan, yuridik jihatdan qoloq va ma’lum masofadagi toifa sifatida “tuzemtsi” deyilgan<sup>44</sup>. O‘lka mahalliy aholisi o‘z mavqeiga ko‘ra, imperiyaning soliqqa tortilgan quyi - qishloq aholisi holatiga ko‘proq mos kelishi, hech qanday alohida imtiyozlardan foydalanmasligi hujjatlarda bayon etilgan. Bu siyosat musulmonlik va islom diniga zid turishida ham ko‘rinib, 1-general-gubernator fon Kaufman (1867-1882 yy) “musulmon e’tiqodiga chidash, lekin uni himoya qilmaslik va ma’naviy qudratini tan olmaslik kerak”<sup>45</sup> degan edi. Bu siyosatga amal qilgan keyingi o‘lka boshliqlari ham ma’muriy sohani diniy sohadan qat’iy ajratish yo‘lidan borib, islom institutlariga siyosiy kuch sifatida e’tiborsiz bo‘lish barobarida, ular davlat nazorati ostiga olingan edi. Boshqa tomondan, boshqa o‘lkalardan farqli o‘laroq, Turkistonda nasroniylik prozelitizmi ta’qiqlanganligi sababli, islomni siqib chiqarishga qaratilgan kuchli mafkura yo‘q edi<sup>46</sup>. Ma’lumki, Rossiya imperiyasining Turkistonda ko‘zlangan mustamlaka

<sup>39</sup> Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917). – С.6.

<sup>40</sup> Абдурахимова Н, Эргашев Ф. Туркестонда чор мустамлака тизими. - Б.42.

<sup>41</sup> Нормуродова Г. XIX аср охири – XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолиси ..., - Б.87.

<sup>42</sup> Махкамova Н. Туркестон генерал-губернаторлигида жамиятнинг ижтимоий стратификацияси // Ўтмишга назар, 2021, №11. -Б.6.

<sup>43</sup> Миронов Б.Н. Российская империя: от традиции к модерну. – С.121.

<sup>44</sup> Adeeb Khalid. Central Asia: A New History from the Imperial Conquests to the Present. p.98-99.

<sup>45</sup> Брежнева С.Н. Толерантность по-русски: из истории проведения религиозной политики Российской империей в Туркестане // Народы и религии Евразии. 2015. -С.213.

<sup>46</sup> Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910., p.36.

siyosatlaridan biri ruslashtirish edi. Olimlar tomonidan ruslashtirish o'zida siyosiy, iqtisodiy, kadr, huquqiy, madaniy va xo'jalik maqsadlarni ifodalaganligi qayd etiladi. Ko'chirilgan rusiyzabon aholi uchun qishloq, posyolkalar tashkil etish, pul hamda moddiy yordam ko'rsatish, yangi posyolkalarda maktab, bilim yurti, cherkovlar davlat hisobidan qurib berilishi belgilangan edi<sup>47</sup>. 1916-yil Farg'ona viloyatida ruslarni miqdoriy jihatdan ko'paytirish to'g'risida gapirilgan hujjatda<sup>48</sup>, ularni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy qo'llab-quvvatlashga urg'u berilgan edi.

1867-yil "Turkestanskiy vedomosti" gazetasida, Yettisuv, Sirdaryo va Zarafshon okruglaridan iborat Turkistonda aholi soni 1 mln. 460.000 kishini tashkil etib, aholi zichligi bo'yicha 1 kv.km ga 105 kishi to'g'ri kelganligi<sup>49</sup>, qayd etiladi. 1876-yilga kelib, gubernatorlik aholisi 3 mln. 150 mingga yaqin bo'lgan<sup>50</sup>. 1897-yil 28-yanvarda Turkiston o'tkazilgan Birinchi aholini ro'yxatga olish tadbiri chuqur ishlab chiqilgan bo'lishiga qaramasdan, ayrim chalkashliklarga ega edi. Bu chunonchi, aholining milliy, etnik tarkibini aniqlashda kuzatildi, ro'yxatda xalqning "millati" yoki qaysi "xalqqa mansubligi" emas, balki "ona tili"si so'ralgandi. Natijada, til so'rovi bo'yicha olingan natijalar u yoki bu xalqlarning millati haqida unchalik aniq ma'lumotlar bermadi. Buni e'tirof etgan o'sha davr etnograflari, "Turkistonning asosiy xalqlari bo'lgan sarta, o'zbek va tojiklar (turk tilini bilgan) o'rtasida chegara o'tkazish juda murakkab ish hisoblanadi"<sup>51</sup> degan edilar.

Umumiy hisobda, 1897-yilda Turkiston aholisi 5,280.983 nafarga yetib<sup>52</sup>, Yettisuv 987,863, Samarqand 860,021, Farg'ona 1,572.214, Sirdaryo 1,478.398 va Kaspiyortiga 382,487 kishi taqsimlangan. Tub xalqlarning umumiy soni 1897-yilda 4,986.324, 1911-yilda esa 5,941.604 kishi bo'lsa, ukrain va beloruslarni ham o'z ichiga olgan rus aholisining soni 1897-yili 197.240, 1911-yilda esa 406.607 kishini tashkil etdi<sup>53</sup>. Bu davrda aholi tarkibi Volga, Rossiya Yevropa qismi, Ural, imperiyaning milliy hududlaridan kelgan tatar, boshqird, armani, gruzin, litvalik, latish, moldavan, fransuz, italyan, nemislar hamda qo'shni Sharq mamlakatlari vakillari hisobiga boyidi<sup>54</sup>.

1897 va 1911-(6,492.692)yllardagi dinamikadan ma'lum bo'ladiki, 14 yil davomida aholi 1 mln. 211.709 nafarga ko'paygan. Bu davrda o'lkada 50 dan ortiq millat va elatlar yashagan deyish mumkin. Sirdaryo viloyati aholisining "til mezon" bo'yicha xalqlar tarkibida qirg'iz-qaysoq (ya'ni qozoq) 80,46 %, buyukrus (ya'ni, ruslar) 7,78 %, shuningdek taranchi (ya'ni, uyg'ur) 5,67 %, sarta 1,57 %, xitoy 1,43 %, tatar 0,87 % bo'lib, boshqa xalqlar kam sonda bo'lgan.

---

<sup>47</sup> Гаффаров Ш. Переселенческая политика Российской империи в Туркестане (вторая половина XIX столетия и начала XX столетия) // Ўтмишга назар. №SI (2021). - С.33; Жўраев Х. Туркistonга кўчирилган аҳолининг ижтимоий ва иқтисодий ҳаёти. PhD автореф. -Б.14. Фарғона давлат университети. (2021-й)

<sup>48</sup> O'z MA, I-19-jamg'arma, 2-ro'xat, 271-yig'ma jild, 8-varaq

<sup>49</sup> Население Туркестанского края // Туркестанская ведомости, 1870 год, 10 июня.- С.22.

<sup>50</sup> Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П. фон-Кауфмана ... - С. 13.

<sup>51</sup> Центральная Азия в составе Российской империи. ..., - С.270.

<sup>52</sup> Первая Всеобщая перепись ... 1897 г.: Ферганская область. -С.III; Закаспийская область. -С.V; Сырдарьинская область. -С.IV; Самаркандская область. -С.III; Семиреченская область. -С.IV.

<sup>53</sup> Абдурахимова Н, Эргашев Ф. Туркistonда чор мустамлака тизими..., - Б. 98.

<sup>54</sup> O'z MA, 1619-jamg'arma, 11-ro'xat, 3-ish, 7-varaq.

E'tiborga olish lozimki, 1925 yilga qadar Rossiya manbalarida "Qozog'iston" va qozoqlar "qirg'iz-qaysoqlar", ularning etnik hududi "Qirg'iz cho'li" deb atalgan<sup>55</sup>.

Aholi milliy tarkibini o'sishi ayrim diasporalarning kengayib borishi hisobiga sodir bo'ldi. Shular jumlasiga, yirik sharqiy slavyanlar diasporasi kirib, Toshkentning "Yangi qismi"da ruslar 1871-yilda 1289 kishidan (harbiylarsiz) 1888 yilda 6360 taga yetgan<sup>56</sup>. 1917-yilda slavyanlar Turkiston aholisining 8-10 foiz atrofida edi<sup>57</sup>. Bundan tashqari, tatar, yahudiy va boshqa diasporalar ko'payib bordi. XIX-asr oxirida tatar diasporasi Namanganda 6 670 kishini tashkil etsa, armanilar Kaspiyorti viloyatida ko'p sonda 11.007 kishi bo'lgan<sup>58</sup>. 1916-yil arafasida deyarli O'rta Osiyodagi 35-40 foiz Buxoro yahudiylari asosan Samarqandda jamlangan edi<sup>59</sup>. 1897-yilda polyaklar Kaspiyorti vil. aholisining 1,0 % ini, Sirdaryo vil. 1,19 % ni, Samarqand vil. 1,17 % va Farg'ona viloyatining 0,10 % ini tashkil etgan<sup>60</sup>. Bu davrda o'lka aholisi etnik tarkibida nemis madaniyatiga yaqin mennoniylar paydo bo'ldi. 1916-yilda Avliyoota uyezdi Ashkevskiy qishlog'ida 42 ta nemis oilasi hamda Orlovskiyda 20 ta mennoniy oilasi bo'lsa, Nikolaypolda jami 143 ta, Ulyanovkada 45 ta va Xiva qishlog'ida 11 ta faqat mennoniy oilasi hisobga olingan<sup>61</sup>. Qisqacha qilib aytganda, turli etnik guruhlarining joylashuvi bo'yicha Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari yetakchi turgan.

1915-1917 yillarga oid etnografik ma'lumotlarda, Turkistonda o'zbeklar va tojiklar umumiy soni 4 mln.ga yaqin, qozoq va qirg'izlar qariyb 2 yarim mln.ga yaqin va boshqa milliy guruhlar bir necha yuz mingni tashkil etgan<sup>62</sup>. Qayd etish lozimki, 1897-yilgi statistikadan farqli ravishda, 1904-1914 yillarda endilikda ro'yxatda ayrim etnik guruhlar, jumladan dungan, hind, arab, afg'on, lo'li va boshqalar ko'rsatib borildi. Bunda, endilikda avvalgidek etnografik emas, balki "milliy bo'linish"ga e'tibor berilgan. 1907-yilda eng kam sonli 13 ta va 1910-yilga kelib ko'p sonli 17 ta xalqlar bo'lib, shu yillarda ularning bor-yo'g'i 18 ta toifalari hisobga olingan<sup>63</sup>. Birinchi jahon urushi davrida aholi etnik tarkibida yana o'zgarish sodir bo'lgan. Avstriya-Vengriya va Germaniyadan keltirilgan harbiy asirlar 1917-yilda 41 ming bo'lib, shundan 3,575 tasi nemislar va 37,770 tasini avstro-vengerlar tashkil etgan<sup>64</sup>. 1915-yilda o'lka aholisi 6 mln. 948.895 tadan 1917-yilga kelib 7 mln.dan ziyod kishiga ko'paydi<sup>65</sup>.

---

<sup>55</sup> Дониёров А., Бўриев О., Аширов А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези... - Б.167.

<sup>56</sup> O'z MA, I-36-jamg'arma, 1-ro'uxat, 3085-ish, 277 varaq.

<sup>57</sup> Тарасова Е.В. Население степных окраин Российской империи накануне революций 1917 г. // Исторические науки и археология. 2015. С.189. <https://cyberleninka.ru/article>. Равшанов Ш. Туркистонга Россия империяси аҳолиси кўчиб келишининг ижтимоий тарихи (XIX аср охири-1917 йил). - Б.18. Ўзб.Рес.ФА-2022.

<sup>58</sup> O'z MA, I-1-jamg'arma, 17-ro'uxat, 774-ish, 12-varaq.

<sup>59</sup> Абрамов М. Бухарские евреи. -Самарканд, 1993. -С.28.

<sup>60</sup> Поляки // Этнический атлас Узбекистана. -Узбекистан, 2002. - С.179.

<sup>61</sup> O'z MA, I-17-jamg'arma, 1-ro'uxat, 17791-ish, 29-varaq.

<sup>62</sup> O'z MA, I-27-jamg'arma, 1-ro'uxat, 764-ish, 288 varaq orqasi va 290-varaq.

<sup>63</sup> Абашин С. Население Ферганской долины... - С.62.

<sup>64</sup> Этнический атлас Узбекистана. -Узбекистан, 2002. - С.179; Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Межнациональная толерантность в Узбекистане... - С.90.

<sup>65</sup> O'z MA, I-27-jamg'arma, 1-ro'uxat, 764-ish, 291-293 varaqлар.

Dissertatsiyaning “**Turkiston aholisi demografiyasidagi o‘zgarishlar va muammolar**” deb nomlangan uchinchi bobida o‘lkaning shahar va qishloqlarida kechgan demografik o‘zgarishlar va Turkiston aholisining diniy tarkibi hamda xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar yoritildi.

O‘lka hududida amalga oshirilgan dastlabki rasmiy ma’muriy-harbiy hisoblar soliq undirish tizimiga asoslangan edi. Bunga ko‘ra, ma’muriyat aholi ro‘yxatini emas, balki xonadon va o‘tov egalari ro‘yxatini yuritgan. Aholi demografiyasi bo‘yicha ilk statistik raqamlarga qaraydigan bo‘lsak, 1867-yilda Yettisuv, Sirdaryo va Zarafshon okruglaridan iborat Turkiston hududida aholi soni 1,460.000 kishi sanalgan<sup>66</sup>. 1870-yillar o‘rtasiga kelib, general-gubernatorlikda har ming kishiga 106 nafar shahar aholisi, 366 nafar o‘troq va 518 nafar ko‘chmanchi aholi to‘g‘ri kelgan. Shu davrda o‘lka shaharlarida yashovchi aholi 360.000 ga yaqin bo‘lib, bu mahalliy aholining taxminan 11 % ga yaqin bo‘lgan. 1897-yilga (5,280.983) nisbatan, 1910-yilga kelib, o‘lkaning faqat Sirdaryo (1,592.199), Farg‘ona (1,667.176), Samarqand (780.846) va Yettisuv (1,126.421) viloyatlarida jami 5,166.642 kishi istiqomat qilgan<sup>67</sup>. O‘n yillikdan (1897-1910-yillar) ziyod vaqt davomida o‘lka aholisi dinamikasi 268.146 ming nafarga ko‘paygan edi.

Bu davrda muhim siyosiy-ma’muriy markazlaridan biri hisoblangan Samarqand shahriga ko‘chib keluvchilar soni yildan-yilga o‘sib bordi. Bu holat ayniqsa, “Yangi shahar” qismida ko‘rinib, 1870-yilda aholi 30-40 ming oralig‘ida, 1897-yilda 55.128 nafar va 1914-yilga kelib 97.530 kishiga yetdi<sup>68</sup>. Tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichi markaz Toshkentda yaqqol ko‘zga tashlanib, 1880-yilga nisbatan 1882-yilda aholi soni ikki barobar (80.326)ga ko‘paygan. Shu raqamlarda tug‘ilish 2470 ta va o‘lim holati 1753 ta to‘g‘ri kelib, oradagi farq 717 tani tashkil etgan<sup>69</sup>.

O‘lkada bosqichlar bilan amalga oshirilgan ko‘chirish siyosati, xom-ashyoga talab, savdo-sanoat sohalarining rivojlantirilishi orqasidan paxta maydonlarining kengaytirilishi natijasida, qishloq hududlarida aholi demografiyasiga bog‘liq muammolarni yuzaga keltirdi, xususan aholi sonining ko‘payib borishi, yer taqchilligi, dehqonchilik mahsulotlariga ehtiyoj va boshqalar shular jumlasidan edi. Tub aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi sug‘oriladigan yerlar miqdori Toshkent uyezdida 1,1 desyatina, Xo‘jand uyezdida 1,1 desyatina, Samarqand uyezdida 0,9 desyatina, Kattaqo‘rg‘on, Jizzax va O‘sh uyezdlarida 0,6 desyatina to‘g‘ri kelgan<sup>70</sup>. Boshqa tomondan rus dehqonlarining yerdan foydalanish miqdori 1910-1913 yillarda Farg‘ona 34.535 m., Sirdaryo 128.408 m., Samarqand 4,672 m., va Yettisuv viloyatlarida 528.506 m., jami 1,295.977 ming desyatina<sup>71</sup> ko‘paygan.

XIX asr oxiriga kelib, Turkistonning qishloq joylarida aholining 86,17 % i, shaharlarda esa 13,83 % i yashagan. Shahar aholisi nisbati Turkiston o‘lkasining yirik savdo-sanoat markazlari Toshkent, Qo‘qon, Andijon, Samarqand, Marg‘ilon va boshqa shaharlar joylashgan tub viloyatlar Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand

<sup>66</sup> Население Туркестанского края // Туркестанская ведомости, 1870 год, 10 июнь. -С.22.

<sup>67</sup> O‘z MA, I-1-jamg‘arma, 6-ro‘uxat, 528-ish, 225-varaq.

<sup>68</sup> Curzon George N. Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russia question. P.230; Первая перепись. – С.2.

<sup>69</sup> O‘z MA, I-17- jamg‘arma, 2-ro‘uxat, 496-yig‘ma jild, 1-5 varaqalar.

<sup>70</sup> Отчет по ревизии Туркестанского края, сенатором гофмейстером графом К.К. Паленом. -С.80.

<sup>71</sup> O‘z MA, I-1- jamg‘arma, 6-ro‘uxat, 528-ish, 228-varaq.

viloyatlarida yuqori edi. Bu davrda yana bir o'zgarish ko'chmanchi aholining o'troqlashuv jarayoniga o'tishi hisoblanadi. 1886-yilgi Nizomda ko'chmanchi aholini o'troq hayotga o'tkazish ta'kidlangan bo'lsa-da, 1909 yilgi Yo'riqnomada, "o'troq xo'jalik o'tayotgan ko'chmanchilar mavjud barcha turdagi yer tartiblari bilan ta'minlanishi; yerlar doimiy foydalanishga berilishi; daromad solig'iga tortilishi uqtiriladi"<sup>72</sup>. Shunga ko'ra, 1911-1912-yillarda Sirdaryo hududida komissiya tomonidan 68 ta qozoq uchastkalariga 204345 desyatina yerlar ajratib berilgan<sup>73</sup>.

1915-yilda o'lka aholisi 6 mln. 948.895 kishi bo'lgan. Aholining o'troq va ko'chmanchilik, shahar va qishloqlar bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha bo'lgan<sup>74</sup>:

**3.1-jadval**

Viloyatlar	Tub aholi		Rus aholisi		Hammasi
	o'troq	ko'chmanchi	qishloq	shahar	
Sirdaryo	1,083.278	651.376	65.749	149.840	1,950.243
Farg'ona	2,026.770	123.285	14.254	47.555	2,211.864
Samarqand	725.195	93.179	8492	59.526	886.392
Kaspiyorti	339.693	112.274	4142	180.067	551.323
Yettisuv	389.967	870.597		88.515	1,349.073
<b>Jami</b>	<b>4,624.903</b>	<b>1,850711</b>	<b>92.637</b>	<b>525.503</b>	<b>6,948.895</b>

Ta'kidlash lozimki, Turkiston aholisi mustamlaka iqtisodiy sohaga ham moslashib bordi. Bu davrda mehnatni yangicha tashkil etish shakllari tarqalib, shaharlarda vujudga kelgan sanoat korxonalarini, transport tarmog'i, moliya muassasalarining vujudga kelishi ma'lum ishchi kuchini ham talab qildi. Bularning barchasi aholi xo'jalik faoliyatida o'zgariisharga olib keldi. 1897 yilda mashg'ulotlarning 398 ta turi aniqlangan bo'lib, ular 65 ta ayrim guruhlariga taqsimlangan edi. Mashg'ulotlarning bu barcha turlari 10 ta asosiy guruhga jamlangan bo'lib, bular: qishloq xo'jaligi, baliq ovlash va ovchilik - 82,8%; ishlov beruvchi, konchilik sanoati va hunarmandchilik - 6,5%; transport va aloqa - 0,9%, savdo - 3,4%, xususiy faoliyat va xizmat ko'rsatish - 3,1%, g'azna hisobotidan ta'minlanuvchilar, jamiyat va xususiy shaxslar - 0,5%, ma'muriyat, politsiya, sud, tabaqa va jamoat xizmati, erkin kasblar - 0,7%, harbiylar - 0,8%, turli diniy muassasalarga xizmat ko'rsatish - 0,4% va boshqa kasbdagilar - 0,9%<sup>75</sup>dan iborat bo'lgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o'lkaning diniy konfessial mazarasi ham xilma-xil bo'lib bordi. Albatta bu davrda musulmonlar 90 foizga yaqin bo'lgan holda<sup>76</sup>, undan so'ng sharqiy slavyanlar diasporasi yoyilgan joylarda pravoslav dini yetakchi o'rinni egalladi. Siyosiy markaz Toshkentda 1878-yilgi aholi diniy tarkibi o'zgarishlariga ko'ra, ko'p sonli musulmonlar 75 foizni, undan so'ng pravoslavlar

<sup>72</sup> O'z MA, I-1- jamg'arma, 12-ro'yxat, 1790-yig'ma jild, 5, 52 -varaqalar.

<sup>73</sup> O'z MA, I-1-jamg'arma, 12-ro'yxat, 1790-yig'ma jild, 51-varaq orqasi.

<sup>74</sup> O'z MA, I-27-jamg'arma, 1-ro'yxat, 764-ish, 291-293 varaqalar.

<sup>75</sup> Tarix sho'hidligi va saboklari. Chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida. ... - B.35.

<sup>76</sup> O'z MA, I-19-jamg'arma, 2-ro'yxat, 271-yig'ma jild, 4-varaq.

22 foiz va boshqa diniy jamoalar turgan<sup>77</sup>. Qiyoslab aytish mumkinki, 1874-yilda shahar “Rus qismi”da ko‘p sonli pravoslavlar 2470 ta bo‘lsa, to‘rt yilda ularning soni 15.139 taga yetgan<sup>78</sup>. Diniy e‘tiqod va mahzablar orasida protestant, rim-katolik, eski rus e‘tiqodchilari, lyuteran, arman-grigoryan, baptist, yevangelchi, mennoniy, molokan singarilar bor edi. Hukumat tomonidan bu davrda yahudiylar qo‘llab-quvvatlangani bois, ushbu konfessiya vakillari soni yildan-yilga o‘sib bordi. Markaz Toshkentda birgina o‘n yil davomida, ya‘ni 1878-yilda 592 kishi aniqlangan bo‘lsa, 1888-yilga kelib 1275 kishi hisobga olingan<sup>79</sup>.

Avvaldan o‘lka musulmonlarini rus yoki pravoslavlariga aylantirish g‘oyasi rad etilgan. Amerikalik diplomat Yujin Skayler, fon Kaufman davrida har qanday missionerlikni mahalliy aholi orasiga olib kirish ta‘qiqlangan<sup>80</sup> deya qayd etgandi. Umuman, 1917-yilgacha deyarli barcha general-gubernatorlar o‘lkada missionerlik faoliyatiga qarshi bo‘lishdi. Zero, pravoslavlikning mintaqada faolligi ko‘p sonli musulmon aholisi bilan ma‘lum nizolarni keltirib chiqarishi mumkin, deb qaralgan. Turkistonda 1897-yilda 11 mingga yaqin katolik bo‘lib, ularning bir qismini polyaklar tashkil etsa-da, XX asrning boshlariga qadar bu yerda birorta katolik cherkovi bo‘lmagan. Lyuteranlar jamoasi Turkistonda 1877-yilda ro‘yxatga olingan, doimiy lyuteran cherkovi esa 1896-yilda Toshkentda paydo bo‘lgan<sup>81</sup>.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida bir qator ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bular jumlasiga Yevropa turmush-tarziga xos hayot tarzining kirib kelishi, shaharsozlik, me‘morchilik, transport, xizmat ko‘rsatish, kiyinish uslubi va boshqa jihatlarni kiritish mumkin. Ayniqsa, tobora ko‘p elatli va ko‘p konfessiyali muhitning kuchayib borishi xalqlar o‘rtasida muloqotning oqilona yo‘llarini izlashga ehtiyoj berdi. Mahalliy ziyolilar mustamlakachilik oqibatlari xususida qayg‘urib, milliy qaramlik, huquqlar kamsitilishiga qarshi tursalar-da, boshqa tomondan, millatlararo tenglik va totuvlikka doir g‘oyalar va amaliy faoliyat taraqqiyparvar jadidlarning diqqat markazida bo‘ldi. Til bilish ahamiyati to‘g‘risida “busiz Turkiston taraqqiyotiga erishib bo‘lmaydi”, “til bilishlik taraqqiyot va ilmu amal yo‘llarini keng ochilmog‘ini garovidir”<sup>82</sup>, deb ta‘kidlangan edi.

Ko‘zdan kechirilayotgan davrda o‘lka tub xalqlari orasida rus tilini bilish keng tarqala boshladi. Mahalliy aholidan chiqqan ma‘muriyat amaldorlari, ko‘plab tadbirkorlar, ziyolilar rus tilida bemalol gaplashgan. Savdogar, hunarmand, duradgor ustalar va ruslar bilan ishlagan ishchilar ham shular jumlasidan edi. O‘z navbatida, Turkiston hukumati ham rus tili va madaniyatini targ‘ib qilishga intilgan. 1876-yilgi rasmiy hujjatda<sup>83</sup>, o‘lkaning barcha aholisi rus savodxonligini o‘rganishi shart, deb belgilab qo‘yildi. XX asr boshlariga kelib, hukumatning o‘lkada rus aholisining mavqeyini kuchaytirish vazifalariga e‘tibor qaratilar ekan, “davlat xizmatchilari uchun barcha o‘rta o‘quv muassalari qoshida mahalliy til va

<sup>77</sup> O‘z MA, I-36-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1528-yig‘ma jild, 134-varaq.

<sup>78</sup> O‘z MA, I-19-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 963-yig‘ma jild, 18-varaq.

<sup>79</sup> O‘z MA, I-36-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3085-ish, 280-varaq.

<sup>80</sup> Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Кўкон, Бухоро ва Ғулжага сайёҳат кайдлари. ..., -Б.124.

<sup>81</sup> Кадырбаев А.Ш., Сыздикова Ж.С. Страна в Междуречье. ..., -С.261.

<sup>82</sup> Бехбудий М. Икки эмас, тўрт тил лозим. Танланган асарлар. – Б.150-152.

<sup>83</sup> O‘z MA, I-1-jamg‘arma, 20-ro‘yxat, 8879-yig‘ma jild, 1-varaq.

yozuvni o'rgatadigan sharqshunoslik kurslari ochish, zaruriy bilimlarni o'rgatish orqali, mahalliy tarjimonlarga suyanib qolmaslik, xalq hayoti bilan yaqin bo'lish<sup>84</sup> ta'kidlangan edi.

Shu o'rinda, "rus dehqonlarida "biz" – ruslar va "ular" – rus bo'lmaganlar, degan mutlaq qarash bo'lmagan va bu boshqa Yevropa xalqlariga ham xos bo'lgan<sup>85</sup> degan fikrlarga qo'shilish mumkin. Darhaqiqat, bir makonda yashagan xalqlar doimo tinchlik, hamjihatlik asosida hayotga kechirishga intilgan, bunda ma'lum siyosiy kuchlar yoki mafkuraning xalqlar o'rtasidagi birdamlik, totuvlikka to'sqinlik qilmaganligini o'tmish ko'rsatadi. Ayniqsa, buni ko'p asrlik polietnik davlat tarixiy tajribasiga ega bo'lib kelgan Turkiston, O'zbekiston xalqlari misolida ko'rsatish mumkin. Tadqiqotchilar qayd etganidek, do'stlik uchun birinchi qadamni ko'p hollarda mahalliy millat kishilari qo'ygan. Turkistonda yashochi xalqlar o'rtasida jiddiy ziddiyatlar deyarli kam bo'lgan, bu holat faqat ayrim hollarda xususiy shaxslar o'rtasida ro'y bergan. Imperiya yoki xorijdan kelgan xalqlar bilan mahalliy aholi o'rtasida munosabatlar savdo, sanoat, ishlab chiqarish kabi sohalaridagi hamjihatlikda namoyon bo'lsa, boshqa tomondan xalqlarning turmush-tarzi, kasb-kori va mashg'ulotlarini integrasiyalashuviga olib keldi. O'lkada savdo, bank va sanoat kapitalining rivojlanishida mahalliy sarmoya bilan ishtirok etgan yangi toifa mahalliy mulkdorlar o'rni ham muhim bo'lgan. Boshqa tomondan ruslar bilan muloqot almashinuvi mahalliy ishchilar dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatdi<sup>86</sup>. Ularning o'zaro ijtimoiy-siyosiy faolligi Rossiyadagi inqiloblar bilan aloqadorlikda rivojlandi.

## XULOSA

1867-1917 yillarda Turkiston aholisi va uning milliy tarkibini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. 1867-1917 yillar oralig'ida mustamlaka Turkiston o'lkasi aholisi va uning milliy tarkibi masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Shunga qaramasdan, o'lkaning mustamlaka sharoitida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixiga oid guruhlashtirilgan izlanishlar tadqiqot uchun muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega bo'ldi. Dissertatsiyada ko'tarilgan o'lka aholisining milliy tarkibi, dinamikasi, konfessial manzarasi va ba'zi demografik masalalari izchil va kompleks ravishda tadqiq etildi. Bu esa tanlangan mavzuning tarix fanidagi dolzarbligini belgilab beradi.

2. Rossiya imperiyasi bosqini arafasida mintaqada yashagan, xususan O'rta Osiyo xonliklari aholisining milliy, etnik tarkibi xilma-xil rivojlanib borgan. So'nggi o'rta asrlar Movarounnahrda yuz bergan murakkab jarayonlarga qaramasdan, mamlakat aholisining etnik tarkibida azaldan yashab kelayotgan o'troq va ko'chmanchi aholi guruhleri mavqeyi katta bo'lgan. Mintaqaning tub

---

<sup>84</sup> O'z MA, I-19-jamg'arma, 2-ro'yxat, 271-yig'ma jild, 9-varaq.

<sup>85</sup> Миронов Б.Н. Социальная история России периода империи. -С.43.

<sup>86</sup> Normurodova G. Socio-economic transformation and stratification of the Bukharan Society (1860-1920) // The Journal of Central Asian Studies. University of Kashmir, India. Vol.: 26/27 2019/2020. P.55. <https://ccas.uok.edu.in/Files/93269b6c-7f53-4439-ae9a-3bdf55a4c649/Journal/e1d2ed14-4834-4ff8-bcf6-490234de34b1.pdf#page=54>

yerli xalqlaridan tashqari, turli mayda etnik guruhlar yahudiy, afg'on, uyg'ur, qalmoq, lo'li, hind va boshqalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi roli o'ziga xos edi. Vohalarda yashagan xalqlar asosan ikki tilli bo'lib, bir vaqtning o'zida ham turkiy, ham eroniy dialektlarda so'zlashgan.

3. Xonliklar davrida yashagan etnik guruhlar diniy e'tiqod, til birligi va turmush tarziga xos umummadaniy belgilar, xususan qabila va urug'lar nomi bilan mang'it, qo'ng'iroq, nayman va h.z.; yashash joyiga qarab, toshkentlik, samarqandlik, xivalik, qo'qonlik va h.z. deb atalgan. Umumiy aholiga nisbatan "el", "elat" iboralari, shahar va shahardan tashqarida, o'troq va ko'chmanchi turmush tarziga ko'ra "shaharnishin", "shahriy" "elatiy" singari ham yuritilgan. Shuningdek, Xorazm, Farg'ona vodiysining ba'zi shahar va qishloqlarida o'lkani boshqa xalqlari bilan qo'shib ketgan qadimgi mahalliy aholi ajdodlariga nisbatan "sart" qo'llanilgan.

4. Rossiya imperiyasi bosqinidan so'ng, ko'p asrlardan buyon mavjud bo'lib kelgan, o'troq va ko'chmanchi aholining diniy hamda mahalliy xususiyatlarini o'zida aks ettirgan boshqaruv tizimi o'rniga imperiya manfaatlariga xizmat qiluvchi mustamlaka boshqaruv tartiblari o'rnatildi. Turkiston general-gubernatorligi aholisi dastlab *sartlar* (o'troq) va *qirg'izlar* (ko'chmanchi) nomi bilan yuritildi. Har birining o'ziga xos yerga egalik qilish va undan foydalanish, soliqqa tortish tizimi yo'lga qo'yildi. 1886-yilda bu bo'linish Nizomdan chiqarib tashlandi. Ularning o'rniga "o'troq yerli aholi" va "ko'chmanchi aholi" kabi umumiy nomlar qo'llanildi.

5. 1897-yilda ilk marta aholini ro'yxatga olish tadbiri amalga oshirildi, ammo bu ro'yxatda ilgari an'anaviy jamiyat tarkibi e'tirof etilmadi. Mahalliy aholining barchasi faqat "inorodtsi" ("yot kishilar") degan bir toifaga ajratildi. Biroq rus fuqarolari ijtimoiy tabaqalanishga ega bo'ldi. O'lkada ko'chirish siyosati ruslashtirish siyosati bilan birgalikda olib borildi. Bu siyosat davomida rus aholisi nufuzini kuchaytirish, rus madaniyati yoyilishiga erishilgan bo'lsa, boshqa tomondan tub joy aholi ijtimoiy va milliy huquqlarining poymol etilishi, islom dinining nazoratga olinishi bilan kechdi.

6. 1867-1917 yillarda Turkistonda vujudga kelgan ko'pmillatlilik asosan, o'lkani mustamlakaga aylantirish, "harbiy-xalq" boshqaruviga asoslangan hukmronlikni ta'minlash va mahalliy xalqlar miqdoriy ustunligini kamaytirish maqsadida, metropoliya turli xududlaridan xalqlarni ko'chirib kelinishi, tashqi migratsiya kabilar hisobiga ro'y keldi. Natijada, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida tub joy xalqlardan tashqari, Volga, Rossiyaning Yevropa qismi, Ural va imperiya janubiy qismi hamda boshqa G'arb va Sharq xalqlarining turli vakillari yashadi. O'lka aholisini tarkibini aniqlashga qaratilgan ro'yxat natijalari o'sha davrda yuritilgan siyosiy mulohazalar, etnografik yondoshuvlar natijasi bo'lgani uchun, ma'lum chalkashliklarga ega bo'ldi.

7. Mustamlaka davrida olib borilgan ko'chirish va ruslashtirish siyosati, Markaziy Osiyo umumiy bozorining shakllanishi, xom-ashyo yetkazish, kapitalistik munosabatlar va mehnat taqsimoti jarayonlarining chuqurlashishi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar tufayli, o'lka shahar va qishloqlarida ma'lum demografik o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlar mahalliy aholi orasida yer

taqchilligi, ko'chmanchi xo'jaliklarda o'troqlashuv jarayonining kuchayishi, aholi sonining ko'payishi bilan birga, mehnat taqsimoti, bandlik ehtiyoji, migratsiya va boshqa demografik muammolarni keltirib chiqardi.

8. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston jamiyatining diniy manzarasi ham xilma-xil bo'lib, din va mazhablar orasida o'lkada ko'p sonli musulmonlar, so'ngra pravoslavlar, yahudiylik, arman-grigoryanlar, lyuteranlar, baptistlar, eski e'tiqodchilar, yevangelchilar va boshqa vakillari istiqomat qildi. Qayd etish lozimki, imperiyaning ruslashtirish siyosati negizida Turkiston xalqlarini pravoslavlik yoki boshqa nasroniy dinlarga o'tkazish ko'zlanmagan, shuningdek missionerlik faoliyatining keng yoyilishiga ham yo'l qo'yilmagan.

9. Mustamlaka sharoitida tobora ko'p elatli va ko'p konfessiyali muhitning kuchayib borishi xalqlar o'rtasida muloqotning oqilona tomonlarini izlashga ehtiyoj berdi. Rus tili va madaniyatining yoyilishi, o'lkada yashagan mahalliy va rus xalqlari o'rtasida hamjihatlik munosabatlari muayyan sohalarda qaror topdi. Boshqa tomondan Yevropa olami bilan bog'liq aloqalarning ijobiy tomonga siljishi, xalqlar o'rtasidagi yaqin muloqotlar maishiy va madaniy hayotga o'ziga xos yangiliklar olib kirdi.

**Tadqiqot ishi natijalariga ko'ra, ilmiy xulosa va aniqlangan muammolar yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:**

- XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida Turkiston aholisi tarixiga bag'ishlangan monografiya chop etish va keng jamoatchilikka taqdim etish;

- Tadqiqot mavzusi bo'yicha oliy ta'lim muassalarida tarix mutaxassisligi bakalavriat va magistratura yo'nalishi talabalari uchun maxsus kurslar tashkil etish;

- Turkiston o'lkasida yashagan xalqlarga bag'ishlangan ensiklopedik lug'at yaratish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**ХОЛХУЖАЕВА ЮЛДУЗ УРАЛБОВНА**

**НАСЕЛЕНИЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЙ СОСТАВ ТУРКЕСТАНА:  
ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ (1867-1917 ГГ)**

**07.00.01. – История Узбекистана**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА  
ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Самарканд – 2024**

Тема докторской диссертации (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Министерства высшего образования, науки и инноваций под номером V2019.4.PhD/Tar581.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Ученого совета ( www.samdu.uz ) и на информационно-образовательном портале «ZiyonET» (www.ziyonet.uz ).

Научный руководитель:

Нормуродова Гузал Бекмуродовна  
доктор исторических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Гаффаров Шокир Сафарович  
доктор исторических наук, профессор

Давлатова Саодат Тиловбердиевна  
доктор исторических наук, доцент

Ведущая организация

Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится 23 08 2024 г. в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 по присуждению учёных степеней при Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, (Адрес: 140104, г.Самарканд, Университетский проспект, 15. Тел.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; Факс: (99866) 239-11-40; e-mail: ректор @samdu.uz ).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирован под номером 67) (Адрес : 140104, г. Самарканд, Университетский проспект, 15). Тел.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; факс: (99866) 239-11-40.

Автореферат диссертации разослан « 08 ». 08 2024 года .  
(Протокол реестра рассылки № \_\_\_\_\_ от « 4 » \_\_\_\_\_ 2024 г.)



**Б.Э.Эргашев**

Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.и.н., профессор

**Ф.А.Нарманов**

Учёный секретарь Научного совета по  
присуждению учёных степеней, PhD

**И.М.Саидов**

Заместитель председателя Научного семинара  
При научном совете по присуждению  
Ученых степеней д.и.н., профессор

*И. Саидов*

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Исторический опыт социально-экономических и культурных отношений представителей разных национальностей, проживающих в различных регионах стран мира в современную эпоху глобализации, рассматривается как фактор стабильности и развития. Следует отметить, что во второй половине XIX начале XX века в Центральноазиатском регионе произошли серьезные политические и социально-экономические изменения. Среди них большое значение имеет исторический анализ проблем формирования народов колониального Туркестана и становления многонациональности в стране, поскольку это одна из актуальных проблем в исторической науке не только региона, но также и межрегионального масштаба.

В ряде научных центров мира широко исследуются социально-политические процессы, протекавшие в колониальных национальных регионах Российской империи, история колониальной политики. В частности, проводятся фундаментальные научные исследования в области истории национальной политики, осуществлявшейся в Туркестане во второй половине XIX – начале XX веков, русификации, демографических процессов. Сравнительно-сопоставительный анализ проживавших в исследуемый период в Туркестанском крае различных этнических групп, их конфессиональная картина и демографические проблемы определяют необходимость настоящего исследования.

За годы независимости в Узбекистане расширился объем исследований в области исторической науки, она обогатилась новыми качественными исследованиями. В этих исследованиях объективно изучается духовное единение народа Узбекистана, ведется изучение и пропаганда богатого научного и духовного наследия наших великих предков, в частности межнационального согласия и межрелигиозной толерантности и другие вопросы. Как отметил на одном из совещаний глава нашего государства: “Если экономика – организм, обеспечивающий жизнедеятельность общества, то духовность – его сердце и душа. Раз мы решили построить новый Узбекистан, мы опираемся на два прочных столпа. Первый – это сильная экономика, основанная на рыночных принципах. Второй – сильная духовность, основанная на богатом духовном наследии наших предков и национальных ценностях”<sup>87</sup>. На данном этапе изучение характера проблем многонациональности и демографии, возникших в Туркестане во второй половине XIX начале XX века, служит внесению новых сведений в историю Узбекистана колониального периода. Это подтверждает актуальность темы исследования в науке.

---

<sup>87</sup> Электрон ресурс: Мирзиёев Ш. Жамият ҳаётининг танаси иктисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир // 2021 йил 19 январда маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги маърузаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4089>.

Настоящая диссертация в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-2995 от 24 мая 2017 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и пропаганды древних письменных источников”, УП-5876 от 15 ноября 2019 года 5876-сонли “Об утверждении Концепции государственной политики Республики Узбекистан в сфере межнациональных отношений”, УП-60 от 28 января 2022 года “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы” и других нормативно-правовых актах, относящихся к этой сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства и пути ее реализации».

**Степень изученности проблемы.** Вопрос о населении Туркестанского края и его национальном составе в период колонизации Российской империей не был отдельно научно исследован. Несмотря на это, научные исследования, имеющие отношение к проблеме, целесообразно разделить на следующие четыре группы по периоду их создания, подходу и территории, а именно: 1) труды, относящиеся ко второй половине XIX – началу XX веков; 2) исследования, проведенные в советский период; 3) научные исследования, осуществленные в Узбекистане в годы независимости и 4) современные зарубежные исследования. Широкий анализ историографических работ подробно освещен в первом параграфе первой главы диссертации.

**Связь исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где была выполнена диссертация.** Диссертационное исследование выполнено в рамках проекта АТД-1 “История государственности на территории Узбекистана: традиции и трансформационные процессы” (2021-2025 годы), согласно плану научно-исследовательских работ Самаркандского государственного университета.

**Цель исследования** состоит в раскрытии населения Туркестанского края и его национального состава в колониальный период (в 1867-1917 годах).

**Задачи исследования** заключаются в следующем:

- проанализировать историографию проблемы;
- охарактеризовать источниковедческие основы темы исследования;
- раскрыть в историческом аспекте этническую картину населения Туркестана накануне завоевания Российской империей;
- осветить сущность социальной и национальной политики империи в отношении населения Туркестана;
- проанализировать формирование многонациональности в крае и изменения в национальном составе населения;
- показать демографические изменения, происходившие в городах и селах края;

изучить религиозный состав населения Туркестана и отношения между народами.

**Объектом исследования** является вопрос о населении Туркестанского края в колониальный период (в 1867-1917 годах).

**Предмет исследования** составляют анализ национального, религиозного состава населения Туркестана и демографические изменения в крае в колониальный период.

**Методы исследования.** В исследовании использованы такие методы, как проблемный, хронологический и сравнительный анализ, статистический метод и систематизация.

**Научная новизна исследования** заключается в следующем:

определено положение и роль этнических слоев оседлого и кочевого населения среднеазиатских ханств, а также различных малочисленных национальных групп (среднеазиатские евреи, иранцы, индийцы, афганцы, уйгуры и др.) в социально-экономической жизни а также аспекты территориального расселения, такие как культурно-хозяйственный образ жизни, занятия, родо-племенные отношения.

раскрыт процесс упадка и кризис социально-экономического положения местного населения (чиновников, крестьян, ремесленников и др.), а также выявлены нарушения национальных прав населения и последствия изменения этнического ландшафта страны в результате национальной политики, направленной на население Туркестана, исходя из политических, социальных, экономических и других интересов метрополии;

обосновано, что в конце XIX начале XX века национально-религиозный состав населения Туркестана в определенной степени увеличился, за счет представителей западных и восточных народов (славяне, европейцы и др.) и разных религиозных конфессий, определены количественное соотношение разных этносов, показатели территориального расположения в разрезе лет и обоснование по областям;

доказано, что демографические изменения в городах и селах Туркестана главным образом связаны с динамикой населения, изменениями в хозяйственной жизни, занятости в ее новых формах (промышленность, транспорт, финансы, профессия и т.д.) и, вместе с тем, обоснована история толерантных отношений между местным и русским населением.

**Практические результаты исследования** состоят в следующем:

посредством анализа исторических источников и архивных документов внесена ясность в спорные и малоизученные вопросы этнической картины населения Туркестана, расположении на его территории различных национальных групп и их роли в социальной, экономической и культурной жизни накануне завоевания Россией;

раскрыто, что полиэтничность, возникшая в Туркестанском крае в 1867-1917 годах, явилась результатом колониализма, а также приведен ряд новых сведений, связанных с коренным населением и прибывшими в край национальными, этническими группами, с их численностью и демографическими изменениями;

